

## XORAZM URFIY MAQOMLARI HAQIDA

Toshboyeva Madina

Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17192208>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> September 2025

Accepted: 05<sup>th</sup> September 2025

Published: 24<sup>th</sup> September 2025

### KEYWORDS

Xorazm olti yaqim maqomlari, nota yozuvlari, tanbur chizig'i, Xorazm urfiy maqomlari, Muhammad Rahimhon Soniy, ustoz-shogirt munosabatlari, Xudoybergan Muhrkan, maqomot.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Xorazm urfiy maqomlari va olti yarim maqomlari haqida, manbaalarga asoslanib olib borilgan izlanishlar, maqomlar tahlili, san'atkorlarning ijro uslubi va ulaning bir biridan farqi, Urfiy maqomlarning o'ziga xosligi va bu borada amalga oshirilgan ishlar haqida so'z boradi.*

Musiqiy merosimizdan bahramand bo'lgan har bir inson bu ulug'vor hikmat olamining tarixi, nazariyasi shuningdek nav, shakl ijod va ijrochilik hamda boshqa ko'plab sohalarga oid qomus ekaniga ishonch hosil qiladi. Bu mumtoz qadriyatlarimizning ayrim bo'laklari musiqaning ilmiy asoslari nuqtai nazaridan hali yetarlicha o'rganilmagan. Xorazm maqomotida dutor maqomlari, olti yarim maqom bilan egizak bo'lib kelayotgan qadriyatlar qatorida Urfiy maqom yo'l- yo'liqlari tizimlari alohida o'rin tutadi. Xorazm maqomotida olti yarim maqom bilan zotan bir-biriga yaqin bo'lib kelayotgan maqom navlaridan biri el orasida urf-odat etilgan Urfiy maqomlar hisoblanadi.

Mulla Bekjon Rahmon va Muhammad Yusuf Devonzoda- larning "Xorazm musiqiy tarixchasi" da shunday ma'lumotlar qayd etilgan: "Muhammad Rahimxon Soniy musiqiy ilmuna chong darajada havosli bo'lib, musiqiy ishlari muning zamonasidan butun- butunina boshqa bir xol kasb etadur. Burundan xalq orasinda ozroq istanilgan musiqiy ishlar ortiqmoch bir sur'atda tarqaladur va milliy nag'malarni vujudga chiqmaqina imkoniyat yaraladur. Xususiy mutaxassis musiqashunoslar durab (yaralib), shashmaqom nag'malarining mushkilot, tasnif qismlari ayriha ahamiyat kasb etib, mushkulot bila tasnif qismlarina taalluqli shashmaqom nag'malari burungi holidan hiylich a'zgarib, necha qo'shimchalar qo'shulib, yomaladur"<sup>1</sup>. (burundan xalq orasinda" so'zi Xorazm shevasida "avvaldan el orasida urf-odat etilgan degan ma'noni anglatadi).

Bugun biz mazkur jarayonlar haqida bir muncha aniq taassurotlarga egamiz. Xivada deyarlik 47 yil (1864-1910) hukmronlik qilgan sozparvar va san'atparvar Muhammad Rahimxon Soniy (adabiy taxallusi Feruz)ning ko'rsatmalari asosida xalq orasida keng tarqalgan Urfiy maqomlardan andoza olinib, uning kuy va ohang tuzilmalari tartibga solinib ko'plab yangi nom, kuy va ashulalarni ijodiy o'zlashtirib yangi tizilmasi yaratilgan. Bu tizilma olti yarim

<sup>1</sup> Mulla Bekjon Rahmon o'g'li Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Toshkent. Yozuvchi. 1998. 33-bet.

maqom deb nomlangan. Komil Xorazmiy, Muhammad Rasul Mirzo, Xudoybergan Muhrkan, Muhammad Yusuf Bayoniy, Matyoqub Xarrot va boshqa maqomdon ustozlar tomonidan olti yarim maqom tanbur chizg'ilariga tushirilgan.[5.23]

Sharq xalqlarining musiqa madaniyati o'z tabiatiga ko'ra rasm rasm, tartib va nazmlari, parda va usul asoslari avloddan avlodga bevosita og'zaki ravishda o'tib boradigan urfiy musiqa toifasiga mansub. Urf-odat, albatta, faqat o'tmish mahsuli uning g'oyasi emas, balki kelajakni ilhomlantiruvchi yangi yo'riqlarga boshlovchi, izchil rivojlanishlarga zamin bo'luvchi zamondir. Urfiy musiqa taraqqiyoti o'zining o'tmish yutuqlariga sadoqat, yangi ufqlarga muntazam intilish, harakatlanib va o'zgarib turuvchi ichki qonuniyatlariga asoslanadi. Urf-odat rishtasi uzilmasligi uchun mohir ustozlar o'z san'atlarini yangi avlodga uqtirib, millat merosiga mehr-muhabbat uyg'otib kelganlar.

San'atda ustoz shogird munosabatlari bir tomonlama o'tadigan oddiy narsa emas. Vorislik musiqa sharoitida ustozdan ta'lim olishlik, uning iziga ergashishlik bevosita tajribadan, har bir alohida vaziyatda o'z qonunlarini taqozo qiladigan amaldagi hayotiy maktabni tashkil etadi.

Ustoz shogird munosabatlarini san'atda biron qolipga tushirib bo'lmaydi. Bu jarayon san'atning o'zidek tor andozaga sig'maydigan hol, cheksiz ijodiy jarayon.

Xorazmlik mashhur maqomdon ustoz Mullo Muhammadsharif Xudaybergan muhrkan tomonidan o'g'li Matpona Xudayberganga meros qoldirgan dastakda quyidagi ma'lumotlar mavjud. "Xorazmda Dilorom changiy degan sozanda bo'lgan. Xiva qal'asining kun chiqish tarafidagi bir bog'da yashagan. Dilorom soz chalib odamlarni bexush qilur erdi. Shu qiz shu bog'da mumkin qadar yuzini nomahramga ko'rsatmas ekan. Chodraning oldiga parda tortib, (o'zi pardaning ichida o'ltirg'an) olarga ta'lim berganlar. Shundan beri Xorazm maqomlari taraqqiy qilg'on". Polvonboy, Yoqub dorichi, O'smonjon, Abdujabbor, Abdurahmonbek degan ustozlar yetishgan. Ulardin bir necha shogirdlar ta'lim olganlar, Mullo Yoqub dorichidan Avaz dorichi, Xudaybergan maxdum, Bobojon bola ularning shogirdlari Mullo Muhammadsharif Xudaybergan muhrkan bo'lgan"<sup>2</sup>

Nomlari zikr etilgan ustozlarning har biri Xorazm urfiy maqom yo'l-yo'riqlarini yaxshi bilgan, Matpona otagacha ustoz shogird urf odatlarini samimiy ehtirom bilan saqlagan ilg'or ustozlar hisoblanadilar.

Matpona ota o'zlari ham uzoq yillar davomida ko'plab ashulachi va san'atkorlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan, yuqori mahoratli, o'z kasbining ulkan namoyandasi bo'lgan san'atkoridir.

O'tgan asrning 30-yillaridan e'tiboran milliy musiqiy qadriyatlarimizdan bo'lgan maqomlarimizning yo'llari to'silib, ular bilan bog'liq tushuncha va atamalar ham keskin ravishda iste'moldan chiqarilgan va bu san'at davr talabidan tashqarida qolib, ijrochilik an'analarida uzilishlar sodir bo'la boshlagan edi.

Ushbu davrlarda musiqiy merosimiz qadimiy namunalarini maqomdon ustozlar xotiralarida og'zaki (ya'ni xatga yozilmagan) tarzda saqlab kelganlar. Ana shunday bilimdonlardan biri Matpano ota Xudoyberganov hisoblanadi. Uzoq yillar viloyat teatrida rahbarlik lavozimlarida ishlagan Yunus Yusupov tashabbusi bilan Matpano ota rahbarligida 1943-yilda Urganchda viloyat teatri qoshida o'ziga xos konsert guruhi ("estrada teatri") tashkil etilib, unda xalq orasida saqlanib qolingani Urfiy maqomlarni yosh san'atkorlarga o'rgatish hamda ommaviylashtirishga qaratilgan ijodiy uyushma yuzaga keldi.<sup>3</sup>

<sup>2</sup> Ushbu tarixiy qo'lyozma Matpano Xudayberganovdan shogirdi Nurmuhammad Baltoyevga taqdim etgan ustoz Nurmuhammad esa, jiyani Sul-tonboy Sobirovga qoldirgan.

<sup>3</sup> Matniyoz Yusupovning shaxsiy arxivida saqlangan tarixiy xujjatlardan biri Xorazm viloyati madaniyat boshqarmasida 1954-yil 25-avgustda bo'lib o'tgan bir majlis bayonnomasidan

Uyushmada atoqli san'atkorlar Razzoq ota Omonov, Hojixon Boltayev bilan bir qatorda Nurmuhhammad Boltayev, Nazira Yusupova, Ollanazar Hasanov, Matniyoz Yusupov, Sayidnazar Otajanov kabi yoshlar ham ishtirok etganlar.

Komiljon Otaniyozov ana shu ijodiy uyushmaning faol ishtirokchilaridan biri bo'lgan, fidokor, uyushmaga moddiy va ma'naviy homiylik qilgan.

1949 yilda O'zbekiston San'atshunoslik ilmiy-tekshirish institutining ish rejasiga muvofiq uning ayrim xodimlari ijodiyuyushma a'zolari Komiljon Otaniyozov, Karimjon Ismoilov, Abdusharif Otajanovlar fidoyiligida Xorazm maqomlari ijrolarining magnit yozuvlarini yaratish borasida rejali ish olib borilgan.

Ijrochi sozandalar sifatida Komiljon Otaniyozov, Karimjon Ismoilov, Abdusharif Otajanov va Matniyoz Yusupovlar bu ishga jalb qilingan. Matpano ota nazoratida Hojixon Boltayev va Komiljon Otaniyozov talqinida institut xodimlari tomonidan "Rost" va "Segoh" maqomining ashula bo'limlari yozib olinadi. 2014-yili Xorazmda Maqom markazi ochilishi munosabati bilan bu jamoa markaz qoshidagi "namunaviy maqom ansambli deb yuritila boshlandi. Maqom markazi jamoasi bilan Urganch davlat universiteti professor-o'qituvchilari hamkorlikni yo'lga qo'yib, Xorazm Urfiy maqomlari, tanbur chizg'ilarida bitilgan olti yarim maqomi va dutor maqomlarining noyob ijro variantlarini yaratish ustida izlanishlar olib borildi.<sup>4</sup>

Xorazm maqomoti amaliyotdagi uslublarini tahlil qiladigan bo'lsak ular uchta yirik navlarni o'z ichiga oladi.

| Xorazm maqomoti    |                 |                         |
|--------------------|-----------------|-------------------------|
| olti yarimmaqomlar | Dutor maqomlari | Surnay(o'yin) maqomlari |

<sup>5</sup>

Urfiy maqom ijrochilik qanchalik murakkab bo'lmasin, qanday yozma (jumladan nota yozuvlari: masalan, mashhur "tanbur chizig'i" zamonaviy nota yozuvlari) va boshqa "xotiraga soluvchi vositalar" ishlatilmasin bu ujrachilik ichki mazmun-mohiyatiga ko'ra og'zakidir.

Shunday qilib Xorazm maqomatining navlari yuqorida keltirilgan jadvaldagi maqom tuzilmalari bilan bir-biridan farq qiladi.

<sup>4</sup> R. Boltayev. Xorazm urfiy maqomlari. Notalar to'plami. Toshkent. "Adast poligraf". 2021. 13-bet

<sup>5</sup> R. Boltayev. Xorazm urfiy maqomlari. Notalar to'plami. Toshkent. "Adast poligraf". 2021. 13-bet

| olti yarimmaqomlar  | Dutor maqomlar   | Surnay (o'yin) maqomlari  |
|---|--|---|
| <ul style="list-style-type: none"> <li>• Urfiy olti yarim maqom</li> <li>• Niyozjon Xo'ja tartib qilgan olti yarim maqom</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Urfiy dator maqomlari</li> <li>• K.Devon tartib qilgan dator maqomlari</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Ufori Navo, Ufori Iroq, galalaylim, Zangboziy</li> </ul> |


6

Urfiy maqom tizimlaridagi kuy xonalarining tarkib va tartibi Olti yarim maqom tizimlarsida to'ldirilib, bozgo'y va avjlar aniq berilgan. Usullar mufassal ko'rsatilgan. Har bir qism parda va usul nomi bilan berilgan. Urfiy maqomlarda ba'zi kuy tizimlarining nomlari so'z matnidagi radiflar nomi bilan aytish odatga kirgan.


Olti yarim maqom tarkibidagi har bir maqomda to'rttadan lad tizimi bor. Urfiy maqomlarning aytim qismi tarkibiga kirgan beshta maqomda 13 ta asosiy lad tizimlari mavjud.

Urfiy Rost maqomi lad tizimlari: "Rost", "Ushshoq", "Sabo", "Panjgoh".

Rost lad tuzilmasi



Ushshoq lad tuzilmasi



Sabolad tuzilmasi.




Panjgoh tuzilmasi




<sup>6</sup> R. Boltayev. Xorazm urfiy maqomlari. Notalar to'plami. Toshkent. "Adast poligraf". 2021. 13-bet

Xorazm Urfiy maqomidagi Buzruk maqomida "Buzruk", "Nasrulloi" ladhari mavjud. Tanbur chizg'ilarida yozilgan Olti yarim maqomdagi Buzruk maqomining lad tizilmasi "Ajam", "Uzzol" lad tizilmalari bilan kengaytirilgan.

Buzruk lad tuzilmasi




Nasrulloi lad tuzilmasi




Xorazm urfiy maqomlarida Dugoh maqomi tarkibiga "Dugoh" va "Chorgoh" ladhari kiritilgan. Tanbur chizg'ilarida yozilgan "Dugoh" maqomi tarkibida "Dugoh", "Chorgoh", "Oraz", "Dugoh Husayni maqomi Dugoh" ladlar mavjud.

Dugoh lad tuzilmasi.



Chorgoh lad tuzilmasi



Seminarda ishtiroq etgan maqomdon ustozlar Urfiy yo'ldagi Segoh maqomidagi Segoh Sabosi nomli qisminiasl o'zining qadimiy nomi Nasri Hijoz muqaddimasi deb nomlashni taklif etdilar.

Nasri Hijoz muqaddimasi

M.M. ♩ = 90 Muqumiy g'azali

1.1.  
Yor a-gar luf ay-la mas,  
jab -ru ja fo ham qil-ma sun,

Detailed description: This is a musical score for a piece titled 'Muqumiy g'azali'. It is written in 2/4 time with a tempo marking of M.M. ♩ = 90. The score consists of four staves. The first staff shows the initial melodic line. The second staff is the first vocal line with lyrics 'Yor a-gar luf ay-la mas,'. The third staff continues the vocal line with lyrics 'jab -ru ja fo ham qil-ma sun,'. The fourth staff shows the instrumental accompaniment. The piece is marked '1.1.'.

Urfiy maqom amaliyotida Segoh maqomidagi Navro'zi Xoro 2/4 o'lchovida aytilga

M.M. ♩ = 66 Oraziy g'azali

1.1.  
Ey tan, bas ay-la g'am-niqish o't-sa ba-hor o'lur,  
2.  
Sah-royu-zi bi naf-shabi-lan lo la-zor o'lur

Detailed description: This is a musical score for a piece titled 'Oraziy g'azali'. It is written in 2/4 time with a tempo marking of M.M. ♩ = 66. The score consists of four staves. The first staff shows the initial melodic line. The second staff is the first vocal line with lyrics 'Ey tan, bas ay-la g'am-niqish o't-sa ba-hor o'lur,'. The third staff is the second vocal line with lyrics 'Sah-royu-zi bi naf-shabi-lan lo la-zor o'lur'. The fourth staff shows the instrumental accompaniment. The piece is marked '1.1.' and '2.'.

Segoh maqomidagi Navro'zi Xoro Nasr usulida ijro etish taklif etildi.

Navro'zi Xoroni 6/4 o'lchovi, Nasr usulida

Urfiy yo'lda Segoh maqomining ufuri qismi saqlanmagan. Ilmiy-amaliy seminari ishtiroqchilari xonandalar Azamat Otajanov, Samandar Xudayberganovlar yaratgan ufuri Segohni bir ovozdan ma'qullanib Segoh tarkibiga kiritish taklifi qo'llab-quvatlandi. Xorazm Urfiy maqomlarining azaliy an'analari qoyidalariga mos bo'lgan yangi na munalar parda tizimiga mos xolda maqomlar tarkibiga kiritildi.

Xorazm maqomlarining zamonaviy yozuvlarini shakllantirish mavzusida tashkil etilgan Respublika ilmiy-amaliy seminari ishtirokchilari Xorazm Urfiy maqomlarining nota, audio va video yozuvlaridan iborat ilmiy nashrini chop etish taklif qilindi.

Xorazm namunaviy maqom ansambli jamoasi, davrning ustoz maqomdon san'atkorlari Xorazm maqomlarini azaliy, ya'ni urfga aylangan namunalarini 2018-2021 yillar davomida o'rganib, ijro etishga muyassar bo'ldilar. Urganch davlat universiteti tadqiqotchi musiqashunos olimlari tomonidan Xorazm maqomlarining tarixiy va nazariy mezonlari ilmiy

nuqtai nazardan tadqiq etildi. Ustozlarning rahnamoligida Xorazm maqom navlari tahlil qilindi.

### XULOSA

Mazkur tadqiqot doirasida Xorazm klassik musiqasi rivojlanishining shartli ravishda juda qadimiy va nisbatan yaqin, lekin "nominal" hamda xotiramiz ilg'aydigan jonli tarixi haqida so'z yuritish mumkin. Agar nisbatan yaqin davr Xorazm — Xiva xonligi deb yuritiladigan 1592 - 1920 yillarni o'z ichiga olsa, jonli tarixi deganda Xorazm maqomlarini nota, audio yozuvlari vositasida va bevosita amaliyot(ijro)dagi an'analari jarayoni sifatida kuzatish mumkin bo'lgan davrni tushunsa bo'ladi. "Xorazm musiqiy tarixchasi" mualliflari esa davrlar taqsimotiga o'zgacha yondoshadilar va uni nisbatan ikkiga ajratadilar: "Birinchi davrdan maqsad shuldirkim, Xorazm musiqasining eng qorong'i zamonlarini tashkil qilg'on taxminan mundan muqaddam besh yuz, olti yuz yillik zamonidag'i hollaridur. Bu muddat ichida Xorazm musiqiy tarixini taraqqiyoti va tadannunisining tarixiy yo'llari ochiq suvratda balli bo'lmasa-da, ba'zi yozilg'on va Xorazmda al'on (hozirgacha) mavjud bo'lg'on tarixiy asarlardan ma'lum bo'ladirkim, Xorazm poytaxti Ko'hna Urganch shahrining ma'mur va obod zamonlarida Chingizxon Ko'hna Urganchni harbiy qilmasdan ilgari, Ko'hna Urganch shaharida sokin bo'lg'on odamlarning aksariysi musiqiyning o'zlarina bir hunar va kasb-ittixos qilg'onlar. Muning orqasida o'z oilalarining o'ngishiqlarini ta'min etgandurlar... XVI asrda Xorazm davlati qayta tiklangandan keyin 328 yil davomida Xiva taxti 49 xon ko'rgan. Ular orasida bir hafta, uch kun, hattoki bir kun hukmronlik qilganlari bor. Ammo davlatchilik, iqtisod va madaniyat taraqqiyotiga katga hissa qushib nom qoldirganlari ham o'tgan. Xiva tarixining ana shunday nufuzli xonlari qatorida taniqli olim, "Shajarai turk, "Shajarai tarokima" asarlarining muallifi Abulg'oziy Bahodirxon (1642-1663), Sherg'oziyxon (1713-1726), Muhammad Rahimxon I (1807-1826), Olloqulixon (1826-1843), Muhammad Aminxon (1845-1855), Said Muhammadxon (1855-1864), Muhammad Rahimxon II (1864-1910) larni aytish mumkin. Va, nihoyat, Xorazm maqomlarining butungi manzaralari haqida so'z borganda, unda yetuk ustozlar bilan bir qatorda, yangi izlanishlarga tashna sozandalar avlodi mavjuddigini aytib o'tish zarur. Ana shunday antiqa ustozlar qatorida Ikrom (Ozod) Ibrohimov nomini aytish o'rinli. Garchand, butun faoliyati teatr va bolalar musiqa maktabi bilan bog'liq bo'lishiga qaramasdan, u o'z vaqtida keksa maqomdonlar san'atidan bahramand bo'lib, ko'p eski jihatlarni xotirada saqlab qolgan. Nafaqaga chiqqandan so'ng, oldin eshitgan-bilganlarini qaytadan idroyutab, Xorazm maqomlarining noyob ijro variantlarini yaratish ustida izlanishlar olib bormoqda. Tanbur chizig'ining yangi topilgan nusxasi asosida Rustam Boltayev, Samandar Xudoyberganov, Matrasul Matyoqubov va Botir Rahimovlar tashabbusi bilan tayyorlangan maxsus konsert dasturi 2002-yil 18-dekabrda O'zbekiston davlat konservatoriyasida soha mutaxassislari diqqatiga havola etilib, yuqori baholandi. Eng muhimi, ilm va ijodga, maqomlar tarixi va amaliyotiga oid yangi ma'lumotlar tadbiq etilmoqda. Demak, bir so'z bilan aytiladigan bo'lsa, Xorazm maqomlarining rivojlanishida Buxoro Shashmaqomidan birmuncha farq tanuvchi vaziyat ro'y berdi. Eng muhimi, Xorazmda maqom ustozlari joyidan siljirshasdan, an'analarning uzluksiz tabiiy ravishda davom ettirish fursati paydo bo'ddi. Ularning shirasi va shevasi imkon kddar saqlandi. Bugungi kunda Xorazm maqom turkumlarining tarkibi tanbur chizig'ida ko'rsatilganidan ancha ixcham. Olti yarim maqom tizimining esa ayrim qismlari, ayniqsa, cholg'u yo'llari afsuski iste'modan qolmoqda. Lekin baxtimizga ularning o'ziga xos jarangi va ijodiy qiyofasi yo'qolgan emas.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rajabov.I. Maqomlar. T.: San'at nashriyoti, 2006.
2. Ibrohimov I. O'n ikki maqom.T.: 6- maqola, 2020
3. Ibrohimov I. Maqom asoslari. T.: TURON-IQBOL nashriyoti, 2018
4. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS <http://www.newjournal.org/> Volume-21\_Issue-1\_January\_2023 111

5. Ibrohimov I. Maqomlar tarixidan. T.:O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi.2018.2-noyabr, №45
6. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi uning tarixi. T., Fan nashriyoti,1993
7. Ibrohimov I. Maqom va makon. T.: Movarounnahr nashriyoti,1996
8. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. T.:1963
9. O.Matyoqubov "Maqomot" Monografiya T., 2004 y
10. [file:///C:/Users/Hp/Downloads/19-22+XORAZM+MAQOMLARI+YARATILISH+TARIXI%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/Hp/Downloads/19-22+XORAZM+MAQOMLARI+YARATILISH+TARIXI%20(1).pdf)
11. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Nashrga tayorlovchi Botir Matyoqubov. "Mumtoz so'z", T., 2014.
12. Абдуллаев Л.Т., "Елена Романовская и ее экспедиция в Хиву" 2019
13. Е.Романовская. Хоразм классик музикаси. М., 1939.
14. М.Юсупов, Хоразм мақомлари VI, Т., 1958
15. Исҳоқ Ражабов. "Мақомлар". "San'at" нашриёти. Тошкент, 2006.

